

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
«O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY
ASOSLARI VA MUAMMOLARI» ILMIY-TADQIQOT MARKAZI**

ISAYEV ASLIDDIN IKROM O‘G‘LI

**TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIGA SOLIQ IMTIYOZLARI
BERISHNING SAMARADORLIGI MASALALARI**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
Economical sciences**

Isayev Asliddin Ikrom o‘g‘li

Tadbirkorlik subyektlariga soliq imtiyozlari berishning samaradorligi masalalari 3

Исаев Аслиддин Икром угли

Вопросы эффективности предоставления налоговых льгот субъектам
предпринимательства. 27

Isaev Asliddin Ikrom ugli

Issues of the efficiency of providing tax incentives to business entities..... 53

Эълон қилинган ишлар рўйхати

Список опубликованных работ

List of published works 58

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
«O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY
ASOSLARI VA MUAMMOLARI» ILMIY-TADQIQOT MARKAZI**

ISAYEV ASLIDDIN IKROM O‘G‘LI

**TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIGA SOLIQ IMTIYOZLARI
BERISHNING SAMARADORLIGI MASALALARI**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan B2024.3.PhD/Iqt2762 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi «O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari» ilmiy-tadqiqot markazida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tsue.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portaliga (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Gafurov Ubaydullo Vaxabovich iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Xudoyqulov Xurshid Xurramovich iqtisodiyot fanlari doktori, professor Xusanov Durbek Nishonovich iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/10.12.2019.I.16.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil «23» 09 soat 16 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51, e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (753 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Ислон Каримов ко'часи 49-уй. Tel.: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51, e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «4» 09 kuni tarqatildi.
(2025-yil «4» 09 dagi 76 raqamli reestr bayonnomasi).



S.U. Mexmonov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
i.f.d., professor

N.Sh. Xajimuratov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi v.v.b., i.f.d., professor

S.K. Xudoyqulov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon mamlakatlarida soliq imtiyozlari ko'p yillar davomida investitsiyalarni rag'batlantirishning muhim vositalari hisoblanib kelgan. "2000-yillarning boshidan boshlab, soliq imtiyozlarining samaradorligi shubha ostiga qo'yilgan. Investitsiya qonunchiligi va siyosat asoslari uchun mas'ul bo'lganlar soliq imtiyozlarini boshqarishni kuchaytirish, masalan, rag'batlantirish muddatini qisqartirish yoki investorlardan qo'shimcha ishlash shartlariga rioya qilishni talab qilish orqali javob berishdi. Bu qimmatli va foydali tadbir bo'lsada, soliq imtiyozlarining amaldagi foydaliligi va samaradorligi hukumatlar tomonidan kamroq o'rganilgan"¹. Tadbirkorlik subyektlariga soliq imtiyozlari berish samaradorligini o'rganish raqobat muhitini yaxshilash, sarmoyalarni jalb qilish, yangi ish o'rinlari yaratish va budget daromadlarini muvozanatlashda muhim ekanligi sohani o'rganishga zaruratni oshirmoqda.

Xalqaro amaliyotda soliq imtiyozlari samaradorligi bo'yicha keng ko'lamdagi ilmiy tahlillarga asoslangan tadqiqotlar olib borilmoqda. Hozirgi kunda moliyaviy oqimlar va xorijiy sarmoyalarni jalb qilishda imtiyozlarning roli, ish o'rinlari yaratish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishni baholash, shu bilan birga soliq imtiyozlaridan suiiste'mol qilish holatlarini oldini olish, davlat budjeti uchun soliq tushumlarining muvozanatini ta'minlash nazariy va amaliy jihatdan chuqur qo'llanilayotgan usullar bilan o'rganilayapti. Shu jumladan, ilmiy tadqiqotchilar ko'p parametrlilik iqtisodiy modellashtirish, iqtisodiy samaradorlikni baholashda statistik usullar hamda korelyatsiya-regressiya tahlillaridan foydalanib, imtiyozlarning iqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sirini aniq belgilash maqsadida keng ko'lamdagi ma'lumotlar bazasini tahlil qilishmoqda. Sohada ilg'or tajribalarni taqqoslash va innovatsion metodologiyalar ishlab chiqish orqali barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash g'oyat muhim tadqiqot yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekiston iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish, mahalliy ishlab chiqaruvchilar raqobatbardoshligini oshirish hamda chet el sarmoyalarini jalb etishda samarali soliq imtiyozlari muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, "So'nggi yillarda iqtisodiyot tarmoqlariga turtki berish uchun ilgari tariximizda bo'lmagan imtiyozlarni joriy etishga majbur bo'ldik. Bugun ulardan natija, saboq, tajriba qanday bo'ldi, degan savolga javob topish kerak. Budgetdan ajratilgan har bir so'mning hisob-kitobini joyiga qo'yish, imtiyozlarning samaradorligini oshirish"² zarurligi ta'kidlanib, bu boradagi keng qamrovli vazifalar belgilab berildi. Mazkur vazifalarni samarali amalga oshirishda tadbirkorlik subyektlari tomonidan kambag'al oila a'zolarini ish bilan ta'minlaganda ushbu xodimlarga to'lanadigan ish haqi bo'yicha ijtimoiy soliqni belgilash, qayta tiklanuvchi energiya manbalari bo'yicha o'rnatiladigan qurilmalarni mablag' bilan ta'minlashni yengillashtirish maqsadida yuridik shaxslarni ushbu qurilmalar uchun mol-mulk va yer solig'idan ozod etish, eksport qiluvchi korxonalar

¹ Revisiting Tax Incentives as an Investment Promotion Tool Q&A for investment policy-makers Kudzai Mataba, Thomas Lassourd, Alexandra Readhead, Suzy Nikiema October 2023. [chrome-extension://efaidnbmnnnibpcajpcglclefindmkaj/https://www.iisd.org/system/files/2023-10/revisiting-tax-incentives-investment-promotion-tool-policy-makers.pdf](https://www.iisd.org/system/files/2023-10/revisiting-tax-incentives-investment-promotion-tool-policy-makers.pdf)

² O'zbekiston Respublikasi Prezident Sh.Mirziyoyev huzurida iqtisodiyot tarmoqlariga yo'naltirilgan imtiyozlar samaradorligi tahlili bo'yicha yig'ilish. 01.11.2022. <https://president.uz/uz/lists/view/5658>

mahsulotlari (xizmatlari) raqobatbardoshligini kuchaytirish va ularning tashqi bozorlarda faol ishtirokini rag'batlantirish uchun eksportdan olinadigan daromadlarini nol darajali foiz miqdoridagi stavkaga tushirish, soliq imtiyozlari berish jarayonini yanada tizimli va maqsadli tashkil etish maqsadida tadbirkorlik subyektlarining "barqarorlik reytingi" indikatorlarini hisobga olish, mamlakatda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda imtiyozlarning samaradorligini ilmiy asoslash va suuiste'mol holatlarini oldini olish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar dolzarb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-apreldagi PF-67-son "Ishlab chiqarish, eksport va tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish, savdo va sanoat siyosati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2024-yil 9-yanvardagi PF-8-son "Tadbirkorlik sohasidagi majburiy talablarni qisqartirish hamda litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2023-yil 10-fevraldagi PF-21-son "Tadbirkorlik subyektlarini toifalarga ajratish mezonlari hamda soliq siyosati va soliq ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, 2025-yil 14-fevraldagi PQ-64-son "Aholini tadbirkorlikka jalb qilish va bandligini ta'minlash uchun moliyaviy yordamlar ajratish tizimini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2024-yil 10-iyuldagi PQ-249-son "Davlat xaridlari tizimini takomillashtirish va unda kichik tadbirkorlik subyektlari ishtirokini rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2024-yil 25-maydagi PQ-193-son "Tadbirkorlik subyektlariga subsidiyalari, imtiyozlar va preferensiyalarni taqdim etish tartiblarini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2024-yil 23-yanvardagi PQ-39-son "Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida", 2023-yil 16-fevraldagi PQ-57-son "2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejoyvchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2023-yil 10-noyabrda PQ-364-son "Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda mikromoliya xizmatlarining o'rni va ulushini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2022-yil 30-sentyabrda PQ-228-son "Tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 28-martdagi 165-son "Tadbirkorlik subyektlariga davlat xizmatlarini ko'rsatish sifatini yanada takomillashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida", 2024-yil 30-yanvardagi 55-son "Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini aniqlash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Tadbirkorlik subyektlariga soliq imtiyozlari berish samaradorligini oshirishning nazariy-uslubiy masalalari xorijlik iqtisodchi olimlar J.Slemrod, A.Gbato, A.Akanbi, A.Smith, A.N.Houndonoubo,

S.N.Stausholm, Y.Zhao, MDH olimlaridan M.V.Goncharova, A.I.Goncharov, D.A.Balayeva, A.K.Dzarasova, B.A.Fedosimov, I.A.Mayburov, V.G.Panskov, O.V.Mandroshenkolarni kiritish mumkin³.

O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlardan T.Malikov, N.Xaydarov, O.Olimjonov, S.K.Xudoykulov, J.J.Urmonov, I.M.Niyazmetov, N.B.Ashurova, U.X.Normurzayev, S.Giyasovlarning ilmiy ishlarida soliq imtiyozlari berish samaradorligiga oid nazariy va metodologik asoslarning ayrim jihatlari o‘rganilgan⁴. Shu bois tadqiqotlarda tadbirkorlik subyektlariga oid soliq imtiyozlari samaradorligi masalalariga yetarlicha e’tibor qaratilmaganligi mazkur ishning dolzarbligini belgilab beradi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi «O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari» ilmiy-tadqiqot markazining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Milliy iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish tizimi transformatsiyasining uslubiy asoslari” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi tadbirkorlik subyektlariga soliq imtiyozlari berishning samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

³ Joel Slemrod, "Tax Benefits: Balancing the Need for Incentives with the Goals of the Tax System" Tax Notes, January 7, 2019, p. 69.; A. Gbato (2017) Impact of taxation on growth in sub-saharan Africa: new evidence based on a new data set Int. J. Econ. Finance Canad. Center. Sci. Edu., 9 2017 ff10.5539/ijef.v9n11p173ff. Ffhal-01673738f; Akanbi A. (2020) The impact of tax collection and incentives on economic growth: evidence from Nigeria Int. J. Bus. Econ. Res., 9 (4) , pp. 170-175; Smith A. On the revenue of the sovereign or commonwealth. In: Smith A. An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations. On the income of a sovereign or state. MetaLibri Digital, 2007. Book 5, p. 535–740. Available at: https://www.ibiblio.org/ml/libri/s/SmithA_WealthNations_p.pdf.; Houndonougbo A. N., Mohsin M. Macroeconomic effects of cost equivalent business fiscal incentives. Economic Modelling, 2016, vol. 56, pp. 59–65. DOI: 10.1016/j.econmod.2016.03.015.; Stausholm, S. N. (2017). Rise of ineffective incentives: New empirical evidence on tax holidays in developing countries.; Zhao, Y. (2023). Study on the Mechanism of the Role of Environmental Tax Incentives on Corporate Social Responsibility—from the Perspective of Tax Incentive Theory. Social Security and Administration Management. <https://doi.org/10.23977/socsam.2023.040609>.; Goncharova M.V., Goncharov A.I. Finansovoye obespecheniye sotsialnoy podderjki v Rossii: teoriya i praktika. Monografiya. Volgograd. Izd-vo VGPU "Peremena", 2006. S. 65 — 66.; Balayeva D. A., Dzarasova A. K. Analiz rezultativnosti primeneniya nalogovoyh lgot kak elementa nalogovogo mexanizma. Nalogi i nalogooblojeniye. 9 (135). 2015.; Fedosimov, B. A. Pravovoy rejim nalogovoyh lgot po zakonodatelstvu Rossiyskoy Federatsii: monografiya / B. A. Fedosimov. – Чебоксары: ID «Sreda», 2019. – 152 s.; Mayburov I. A., Ivanov Yu. B. (red.) Налоговые льготы. Теория i praktika primeneniya. Teoriya i praktika primeneniya. Moskva: YUNITI-DANA, 2015. 488 s.; Panskov V. G. Налоговые льготы: teoriya i praktika. Ekonomika. Nalogi. Pravo = Ekonomika, Nalogi. Zakon. 2016. №. 1, str. 119–125.; Мандрощенко О.В. Основные подходы k otsenke effektivnosti nalogovoyh lgot. Finansovaya analitika: problemy i resheniya = Finansovaya analitika: problemy i resheniya, 2016, s. № 39, str. 45–60.

⁴ Malikov T., Xaydarov N. Davlat byudjeti. O‘quv qo‘llanma. Toshkent-2007.; 1.29. Malikov T., Olimjonov O. Moliya (darslik) / Toshkent . Iqtisod-moliya -Toshkent, 2019.; 1.29.; Xudoykulov S.K. Soliq tushumlarini prognoz qilish metodologiyasini takomillashtirish. i.f.d. diss. avtoreferati. T., 2019. 77 b.; Urmonov J.J. Tadbirkorlik subyektlarini soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish masalalari: Monografiya/ T.: “Iqtisod-Moliya”, 2018 y. 240 b.; Ashurova N.B. Barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. 2018. 25 bet.; Niyazmetov I.M. “Soliq yukini optimallashtirish: nazariya, uslubiyat va amaliyot” Monografiya.-Toshkent: “Moliya”, 2016. 192 b.; Normurzayev U.X. Soliq imtiyozlarining samaradorligi: nazariya, metodologiya va amaliyot. 08.00. 07 – Moliya, pul muomalasi va kredit. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. 2022.; Giyasov S. Korxonalarining innovatsion-investitsion faoliyatini tartibga solishda soliq imtiyozlarini takomillashtirish. Avtoreferat. Toshkent, 2019. 24 bet.

Tadqiqotning vazifalari:

solix imtiyozlarining nazariy asoslari va uning solix tizimidagi ahamiyatini ko'rib chiqish;

tadbirkorlik subyektlariga solix imtiyozlarini qo'llashning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini tahlil qilish;

tadbirkorlik subyektlariga solix imtiyozlarini berishning xorij amaliyotini o'rganish;

solix imtiyozlarini tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga ta'sirini tarmoqlar bo'yicha tahlil qilish;

solix imtiyozlari samaradorligi va ularning iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga ta'sirini baholash;

tarmoqlarda tadbirkorlik subyektlarini maqsadli rag'batlantirishni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

solix imtiyozlarining samaradorligini oshirishda monitoring va baholash tizimini takomillashtirish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida O'zbekiston Respublikasidagi solix imtiyoziga ega barcha xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati olingan.

Tadqiqotning predmeti tadbirkorlik subyektlariga solix imtiyozlari berishning samaradorligini nazariy, amaliy va uslubiy asoslarini takomillashtirish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda dialektik yondashuv, tahlil va sintez, tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, reyting baholash, statistik va boshqa usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tadbirkorlik subyektlari tomonidan kambag'al oila a'zolarini ish bilan ta'minlangan hamda muayyan midordagi oylik ish haqi to'langan holda, mazkur xodimlarining mehnatiga haq to'lashga doir xarajatlari bo'yicha ijtimoiy soliqni 1 foiz miqdorida belgilash taklif etilgan;

yuridik shaxslar tomonidan umumiy quvvati 100 kVtgacha bo'lgan qayta tiklanuvchi energiya manbalari (quyosh, shamol va boshqalar) bo'yicha o'rnatiladigan qurilmalarni mol-mulk va yer solig'idan ozod etish orqali mazkur faoliyatni rag'batlantirish hamda moliyaviy mablag' bilan ta'minlashni yengillashtirish taklif etilgan;

tadbirkorlik subyektlarining eksportdan olinadigan daromadlarini nol darajali foiz miqdoridagi stavkaga tushirish asosida eksport qiluvchi korxonalar mahsulotlari (xizmatlari) raqobatbardoshligini kuchaytirish va ularning tashqi bozorlarda faol ishtirokini rag'batlantirish taklifi asoslangan;

tadbirkorlik subyektlari faoliyatini "yuqori", "o'rta", "qoniqarli" va "quyi" barqarorlik reytingi toifalariga ajratilishini ko'zda tutuvchi "barqarorlik reytingi" indikatorlarini hisobga olish asosida solix imtiyozlari berish jarayonini yanada tizimli va maqsadli tashkil etish asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

moliya yili mobaynida budjet tizimi budjetlari daromadlarini kamaytiruvchi yoki ulardan ajratmalarni qisqartiruvchi imtiyozlarni joriy etishni har tomonlama iqtisodiy va moliyaviy baholovdan so'ng, aniq me'yorlar asosida cheklash zarurligi amaliy jihatdan asoslangan;

soliq to'lovchining ixtiyoriga ko'ra soliq hisobotlarini bevosita soliq organlari tomonidan tuzish tizimini joriy qilish taklif etilgan;

tadbirkorlik subyektlari tomonidan kambag'al oila a'zolarini ish bilan ta'minlaganda ijtimoiy soliqni 1 foiz miqdorida belgilash tartibi ishlab chiqilgan;

soliq imtiyozlarining iqtisodiy samaradorligini baholashda xarajat-foyda tahlili, statistik tahlil va simulyatsiya modellaridan foydalanish taklif etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi. Tadqiqot ishini tayyorlashda O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining rasmiy ma'lumotlaridan foydalanilganligi, ishda qo'llanilgan yondoshuv va usullarning maqsadga muvofiqligi va ilmiy asoslanganligi, keltirilgan xulosa, taklif va tavsiyalarning O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi tomonidan joriy qilinganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tadbirkorlik subyektlariga soliq imtiyozlari berishning samaradorligini oshirishga oid maxsus ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar soliq imtiyozlaridan foydalanish samaradorligini oshirish, soliq imtiyozlarini maqsadli joriy etilishi, nazorat mexanizmlarini takomillashtirish, qonunchilik bazasini yaxshilash, shuningdek, oliy ta'lim muassasalari uchun ilmiy adabiyotlar, o'quv va uslubiy qo'llanmalar tayyorlash uchun ishonchli metodik asos yaratishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, qabul qilinadigan huquqiy hujjatlarni takomillashtirishda ilmiy asoslangan ma'lumotlardan foydalanishni yengillashtiradi va soliq imtiyozlari mexanizmini rejalashtirishda muhoqama uchun yo'nalishlar taqdim etadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadbirkorlik subyektlariga soliq imtiyozlari berishning samaradorligi bo'yicha ishlab chiqilgan takliflar asosida:

tadbirkorlik subyektlari tomonidan kambag'al oila a'zolarini ish bilan ta'minlangan hamda muayyan midordagi oylik ish haqi to'langan holda, mazkur xodimlarining mehnatiga haq to'lashga doir xarajatlari bo'yicha ijtimoiy soliqni 1 foiz miqdorida belgilash taklifi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrda "Soliq va budget siyosatining 2025-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi O'RB-1014-sonli Qonuni bilan amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasining 2025-yil 16-yanvardagi 27/2-05912-sonli dalolatnomasi). Mazkur taklif kambag'allikni qisqartirish, aholi bandligini oshirish va iqtisodiy imkoniyatlardan keng ommani foydalanishini rag'batlantirishga qaratilgan;

yuridik shaxslar tomonidan umumiy quvvati 100 kVtgacha bo'lgan qayta tiklanuvchi energiya manbalari (quyosh, shamol va boshqalar) bo'yicha o'rnatiladigan qurilmalarni mol-mulk va yer solig'idan ozod etish orqali mazkur faoliyatni rag'batlantirish hamda moliyaviy mablag' bilan ta'minlashni yengillashtirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi "2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya

tejavchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-57-son qarori bilan amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasining 2025-yil 16-yanvardagi 27/2-05912–sonli dalolatnomasi). Buning natijasida mazkur imtiyoz hisobiga aholi va tadbirkorlar ixtiyorida yiliga 53,4 mlrd.so'm mablag' qoldirish imkoni yaratilgan;

tadbirkorlik subyektlarining eksportdan olinadigan daromadlarini nol darajali foiz miqdoridagi stavkaga tushirish asosida eksport qiluvchi korxonalar mahsulotlari (xizmatlari) raqobatbardoshligini kuchaytirish va ularning tashqi bozorlarda faol ishtirokini rag'batlantirish taklifi O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrda "Soliq va budget siyosatining 2023-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-812-son Qonuni bilan amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasining 2023-yil 6-yanvardagi 21-01073–sonli dalolatnomasi). Mazkur taklif bir tomondan, eksport salohiyatini yuksaltirishi, ikkinchi tomondan esa ichki iqtisodiy sharoitda tarmoqlararo kooperatsiyani rag'batlantirishga xizmat qilgan;

tadbirkorlik subyektlari faoliyatini "yuqori", "o'rta", "qoniqarli" va "quyi" barqarorlik reytingi toifalariga ajratilishini ko'zda tutuvchi "barqarorlik reytingi" indikatorlarini hisobga olish asosida soliq imtiyozlari berish jarayonini yanada tizimli va maqsadli tashkil etish taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-yanvardagi "Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-39-son qarori bilan amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasining 2025-yil 16-yanvardagi 27/2-05912–sonli dalolatnomasi). Ushbu taklif natijasida imtiyozlar ayni paytda iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradigan va davlat budjetini barqarorlashtiradigan korxonalarga yo'naltirish imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 12 ta, jumladan 3 ta xalqaro va 9 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama qilingan va ijobiy xulosalar olingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 22 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta, shundan, nufuzli xorijiy jurnallarda 1 ta ilmiy maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 124 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida ilmiy tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilinib, olingan natijalarning

ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Soliq imtiyozlarining nazariy asoslari va uning iqtisodiyotga fiskal ta'siri”** deb nomlangan birinchi bobida soliq imtiyozlarining nazariy asoslari va uning soliq tizimidagi o'rnini, O'zbekistonda tadbirkorlik subyektlariga soliq imtiyozlarini qo'llashning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati hamda tadbirkorlik subyektlariga soliq imtiyozlarini berishning xorij amaliyoti bo'yicha tadqiqot olib borilgan.

Soliq imtiyozlari hukumatlar tomonidan muayyan iqtisodiy faoliyat yoki xatti-harakatlarni rag'batlantirish uchun qo'llaniladigan soliq siyosatining shaklidir. Soliq imtiyozlarining nazariy asoslari iqtisodiy samaradorlik, tenglik va barqarorlikka erishishda soliqqa tortishning rolini ta'kidlaydigan davlat moliyasi tamoyillariga borib taqaladi. Iqtisodiy samaradorlik nuqtai nazaridan soliq imtiyozlari investitsiyalar kabi ijobiy tashqi ta'sirlarni keltirib chiqaradigan faoliyatni rag'batlantirish orqali bozordagi muvaffaqiyatsizliklar va buzilishlarni tuzatish uchun ishlatilishi mumkin. Soliq imtiyozlari doirasida ushbu faoliyat turlari uchun tannarxni kamaytirish orqali tadbirkorlik subyektlari va jismoniy shaxslarni iqtisodiy o'sish hamda farovonlikning oshishiga olib kelishi ehtimoli bor ijtimoiy maqbul harakatlarni amalga oshirishga rag'batlantirish ko'zda tutiladi.

Mamlakatimizda shu vaqtgacha biznes muhitini yaxshilash va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga qaratilgan qator soliq islohotlari amalga oshirildi. Bu islohotlar kichik biznes subyektlari uchun yagona soliq stavkasini joriy etish, yuridik shaxslardan olinadigan soliq stavkasini pasaytirish, ayrim tarmoqlar uchun soliq imtiyozlarini joriy etishni o'z ichiga oladi. Shuningdek, joriy etilgan soliq imtiyozlaridan biri bu investitsiyalarni jalb etish uchun soliq imtiyozlarining joriy etilgani bo'lib, u iqtisodiyotning qishloq xo'jaligi va ishlab chiqarish kabi ustuvor tarmoqlariga kiritilgan investitsiyalar uchun soliq imtiyozlarini taqdim etadi. Soliq imtiyozi 10 yilgacha muddatga beriladi va kiritilgan investitsiya ulushiga asoslanadi. O'zbekistonda soliq imtiyozlaridan iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va ustuvor tarmoqlarga investitsiyalarni jalb etish vositasi sifatida foydalanilmoqda. Ammo ushbu soliq imtiyozlarining o'z maqsadlariga erishishda samaradorligini, shuningdek, har qanday mumkin bo'lgan kamchiliklar yoki kutilmagan oqibatlarni tekshirish muhim hisoblanadi.

Tadbirkorlik subyektlariga soliq imtiyozlarini qo'llash O'zbekistonda mintaqaviy rivojlanish va yangi ish o'rinlari yaratishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Soliq imtiyozlari mutanosib mintaqaviy rivojlanishga yordam berish uchun muayyan hududlar yoki tarmoqlarga yo'naltirilishi mumkin. Iqtisodiy noqulay hududlarda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlariga imtiyozli soliq rejimini taklif qilish orqali hukumat ushbu hududlarda investitsiyalar va yangi ish o'rinlari yaratishni rag'batlantirishni amalga oshiradi. Bu mintaqaviy tengsizliklarni kamaytirishga, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishga va migratsiya bosimini yumshatishga yordam beradi.

Kichik biznesga nisbatan soliq imtiyozlarining samaradorligini baholashda ularning o'ziga xos ehtiyojlari va ta'sirini hisobga olish yanada muhimroq bo'ladi. Soliq imtiyozlari kichik biznes subyektlarining o'sishi va rivojlanishini qo'llab-

quvvatlash, ularga moliyaviy qulayliklar yaratish, qulay ishbilarmonlik muhitini yaratishda muhim o‘rin tutadi. Kichik biznesga nisbatan soliq imtiyozlarining samaradorligi ko‘rsatkichlari 1-rasmda keltirilgan.

Kichik biznes uchun byudjet samaradorligi
koeffitsiyenti

Kichik biznes uchun soliq imtiyozlarining iqtisodiy
samaradorlik koeffitsiyenti

Kichik biznes uchun soliq imtiyozlarining ijtimoiy
samaradorlik koeffitsiyenti

**1-rasm. Kichik biznesga nisbatan soliq imtiyozlarining samaradorligi
ko‘rsatkichlari⁵**

Ushbu samaradorlik ko‘rsatkichlaridan foydalangan holda kichik biznes uchun soliq imtiyozlari samaradorligini monitoring qilish va nazorat qilish orqali rag‘batlantirish kichik biznes o‘shini samarali qo‘llab-quvvatlayaptimi, iqtisodiy rivojlanishni rag‘batlantirayaptimi va kutilgan ijtimoiy natijalarga hissa qo‘shyaptimi yoki yo‘qligini baholash imkonini beradi. Ushbu baholash kichik biznes ehtiyojlariga yaxshiroq xizmat ko‘rsatish va ularning muvaffaqiyatini rag‘batlantirish uchun soliq siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish bo‘yicha qaror qabul qilishda ma‘lumot berishi mumkin.

Soliq imtiyozlarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, bu imtiyozlarning taqsimlanishi turli soliq turlari bo‘yicha farqlanadi. QQS imtiyozlari doimiy ravishda sezilarli bo‘lib kelgan, yuridik shaxslar uchun foyda solig‘i bo‘yicha imtiyozlar esa yillar davomida sezilarli darajada o‘sgan. Bu soliq imtiyozlari samaradorligini budjet samaradorligi, iqtisodiy samaradorlik, ijtimoiy samaradorlik kabi ko‘rsatkichlar asosida baholash muhimligini ko‘rsatadi.

Soliq imtiyozlari butun dunyo hukumatlari tomonidan iqtisodiy o‘shish va rivojlanishni rag‘batlantiradigan, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantirish uchun kuchli vosita ekanligi ayonlashmoqda. Lekin hukumatlar ushbu imtiyozlarning davlat daromadlariga potensial ta‘sirini diqqat bilan ko‘rib chiqishlari va imtiyozlar mamlakat yoki mintaqaning iqtisodiy o‘shishiga hissa qo‘shadigan bizneslarga berilishini ta‘minlash uchun muvofiqlik mezonlarini amalga oshirishlari muhimdir. Shunday qilib, soliq imtiyozlari investitsiyalarni rag‘batlantirish va iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantirish uchun samarali vosita bo‘lishi

⁵ O‘rganishlar asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

mumkin. Ular ko‘p foyda keltirishi mumkin bo‘lsada, ular xavf va kamchiliklarga ham ega. Shu sababli, soliq imtiyozlaridan foydalanishni diqqat bilan ko‘rib chiqish va ulardan mas‘uliyatli hamda samarali foydalanishni ta‘minlash juda muhim ahamiyatga ega.

Dissertatsiyaning **“Tadbirkorlik subyektlarida soliq imtiyozlarining joriy qilinishi va iqtisodiy samaradorligini tahlil qilish”** deb nomlangan ikkinchi bobida tadbirkorlik subyektlarida soliq imtiyozlaridan foydalanishning joriy holati tahlili, soliq imtiyozlarini tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga ta‘sirini tarmoqlar bo‘yicha tahlili, soliq imtiyozlari samaradorligi va ularning iqtisodiy o‘rishni rag‘batlantirishga ta‘sirini baholash kabi masalalar o‘rganilgan.

O‘zbekistonda ham iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish jarayonlarida soliq siyosatini maqbullashtirish, tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni qayta ko‘rib chiqish va xususiy sektorni rag‘batlantirish jarayoni jadallik bilan olib borilmoqda. Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari hamda yangilangan Soliq kodeksida tadbirkorlar uchun berilayotgan imtiyozlar, cheklanmagan erkinliklar va yengillashtirilgan shartlar mamlakatimizda vujudga kelayotgan yangi iqtisodiy muhit nishonasidir. Bir tomondan, bugungi sharoitda soliq yukini kamaytirish xususiy kapitalni kengroq tarzda amalga oshirish imkonini bersa, ikkinchi tomondan, imtiyozlardan to‘g‘ri foydalanish pirovard natijada biznes rivoji bilan birga xalq farovonligiga xizmat qilishi lozim.

Albatta, imtiyozlarning samaradorligini ko‘rsatadigan eng muhim mezonlardan biri bu iqtisodiy ko‘rsatkichlar rostdan ham yaxshilangani yoki yo‘qligi bilan bog‘liq. Masalan, imtiyozlar berilishi sababli qanday korxonalar yangi mahsulot chiqara boshladi, qancha yangi ish o‘rinlari yaratildi, eksport hajmida qanday o‘zgarishlar kuzatildi va pirovard natijada budjet tushumlari qanchalik oshdi? Bundan tashqari, imtiyozlardan foydalanuvchilar sonida davriy o‘rish kuzatildimi, bu jarayonda eski imtiyozlar bekor qilinib, yangilari kiritildimi? Ana shu kabi savollar haqiqiy vaziyatni namoyon etadi.

1-jadval

2020-2024-yillardagi soliq tushumlari ulushi tahlili⁶, mlrd.so‘m

Ko‘rsatkichlar	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil
YAIM miqdori	668038,0	820536,6	995573,1	1204485,4	1454573,9
Davlat budjeti daromadlari	132 938,0	164 680,3	202042,9	183442,8	274 423
Soliq tushumlari	103 566,4	127 970,4	148501,2	165 918,3	215 537
Boshqa daromadlar	20 045,8	26 423,0	43112,8	7 488,0	58 886
Soliq imtiyozlari	31 065,6	43 479,2	72 963,7	69 777,9	83 276,3
Soliq tushumlarining YAIMga nisbati, foizda	15,5	15,6	14,9	13,8	14,8

Shu tariqa, bu tahlil tadbirkorlar faoliyatini yanada jonlantirish, yangi loyihalarni qo‘llab-quvvatlash, taraqqiyot uchun zarur sharoitlarni yaratish

⁶ Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma‘lumotlari asosida shakllantirilgan.

imkoniyati bilan birga, davlat siyosatini zamon talablariga muvofiqlashtirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday ilmiy asoslangan xulosalar kelgusida soliq siyosatini yanada takomillashtirish, imtiyozlar joriy etish mexanizmlarini qayta ko‘rib chiqish hamda tadbirkorlik sohasida yanada muvaffaqiyatli qadamlar tashlash uchun mustahkam poydevor vazifasini bajaradi.

1-jadvalda 2020–2024-yillar oralig‘ida mamlakat yalpi ichki mahsulot (YAIM) ko‘rsatkichi hamda davlat budjeti daromadlarida bir qancha ahamiyatli o‘zgarishlar kuzatilgan. Jadvalda aks etgan raqamlarga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, ushbu yillar mobaynida YAIM sur‘atli ravishda ortganiga qaramasdan, soliq tushumlarining YAIMga nisbatan ulushi yil sayin biroz kamaygani ko‘zga tashlanadi.

Shunday qilib, 2020–2024-yillar davrida soliq tushumlarining YAIMga nisbatan pasayishi, bir tomondan, iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish siyosati bilan uyg‘un bo‘lsa, ikkinchi tomondan esa imtiyozlar soni va summasining ortishi bilan bog‘liq ekani ko‘zga tashlanadi. Shu bilan birga, bu ko‘rsatkich kelgusi yillarda ham ushbu dinamika qanday saqlanishini yoki o‘zgarishini muntazam kuzatish zarurligini bildiradi. Chunki iqtisodiy siyosatda soliq tushumlarini bir maromda optimal saqlab qolish, shu bilan bir vaqtda xususiy sektor rivojini so‘ndirib qo‘ymaslik juda nozik muvozanat nuqtasi sifatida qoladi.

Tadbirkorlik subyektlari hamda jismoniy shaxslar uchun belgilanadigan soliq stavkalari iqtisodiy siyosatni tartibga solishda eng muhim vositalardan biri hisoblanadi. Zero, soliq stavkalari orqali davlat tomonidan bizneslarni rag‘batlantirish yoki budjet tushumlarini maqsadli ta‘minlash imkoni yuzaga keladi. Quyidagi 2-jadval 2018–2024-yillar mobaynida asosiy soliq turlari bo‘yicha stavkalarda ro‘y bergan o‘zgarishlarni ko‘rsatadi (foizlarda):

2-jadval

Soliq stavkalarining 2018-2024-yillardagi o‘zgarish tahlili⁷, (foizda)

Soliqlar nomi	2018 yil	2019 yil	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil	2024 yil
Foyda solig‘i	14	12	15	15	15	15	15
Aylanmadan olinadigan soliq	6	4	4	4	4	4	4
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	0-22	12	12	12	12	12	12
Qo‘shilgan qiymat solig‘i	20	15	15	15	15	12	12
Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	5	2	2	2	2	1,5	1,5

2-jadval ma‘lumotlari asosida tahlil qiladigan bo‘lsak, 2018–2024-yillar davrida soliq stavkalarining sezilarli darajada kamaytirib borilishi, bir tomondan, iqtisodiy erkinlashuv va soliq yukini pasaytirish siyosatining bir qismidir. Ikkinchi tomondan esa mamlakatimizda tashkiliy-huquqiy sharoitni yaxshilash, sarmoya kiritishni osonlashtirish va tadbirkorlik muhitini liberallashtirish maqsadida olib borilayotgan keng qamrovli islohotlardan dalolat beradi.

⁷ O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

2021-2023-yillar davomida normativ-hujjatlar kesimida foydalanilgan soliq imtiyozlari tahlili⁸, mlrd.soʻmda

Soliq turi	Soliq imtiyozlari foydalanilgan									
	2021		2022		2023		Farqi 2021-2023		Farqi 2022-2023	
	holatlar soni	summasi	holatlar soni	summasi	holatlar soni	summasi	holatlar soni	summasi	holatlar soni	summasi
Jami	65 090	43 479,2	146 368	72 963,7	152 332	69 777,9	87 242	26 298,7	5 964	-3 185,8
Oʻzbekiston Respublikasi Soliq kodeksi	43 482	35 202,7	94 448	66 262,4	110 329	60 766,0	66 847	25 563,3	15 881	-5 496,5
Oʻzbekiston Respublikasi Qonuni	444	294,1	677	435,9	480	367,5	36	73,4	-197	-68,4
Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori	14 346	3 595,3	47 382	2 091,9	10 611	4 242,7	-3 735	647,4	-36 771	2 150,8
Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni	3 567	948,9	1 891	2 030,9	29 852	2 725,6	26 285	1 776,7	27 961	694,7
Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori	2 399	2 761,1	1 184	1 339,1	396	708,8	-2 003	-2 052,3	-788	-630,3
Boshqa hujjatlar	852	677,1	786	803,5	664	967,3	-188	290,2	-122	163,8

⁸ Oʻzbekiston Respublikasi Soliq qoʻmitasi maʼlumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

Soliq imtiyozlari bekordan-bekor berib yuborilmaydi. Davlat miqyosida belgilanayotgan har qanday imtiyoz yoki yengillik ma'lum bir me'yoriy-huquqiy hujjat asosida taklif qilinadi, qabul qilinadi va amalga oshiriladi. Chunki imtiyozlar orqali budjet siyosatini mo'ljallash, tadbirkorlik muhitini rag'batlantirish yoki maqsadli muayyan tarmoqlarga yordam berish nazarda tutiladi. 2021–2023-yillar davomida me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida tadbirkorlik subyektlari uchun taqdim etilgan imtiyozlarning holatlar soni va ular summasi (mlrd.so'mda) ko'rsatilgan (3-jadval).

2021–2023-yillar davomida normativ-hujjatlar kesimida soliq imtiyozlaridan foydalanish tahlili shuni ko'rsatadiki, Soliq kodeksi asosidagi imtiyozlar eng keng qamrovga ega bo'lib, tadbirkorlar uchun eng asosiy huquqiy baza bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, Prezident qarori va farmoni bilan belgilanayotgan yengilliklar ham sezilarli rol o'ynaydi, ular ko'pincha strategik yoki innovatsion loyihalarni amalga oshirish, eksportni rivojlantirish yoki mahalliy ishlab chiqarishni kengaytirish maqsadida beriladi.

Ayni paytda Vazirlar Mahkamasi qarori va O'zbekiston Respublikasi Qonuni asosidagi imtiyozlar salmog'i qisqarib borayotgani esa amaliy siyosatda yangi imtiyozlar juda yuqori darajada (Prezident farmoni/qarori) yoki to'g'ridan-to'g'ri Soliq kodeksida aniq belgilab qo'yilgan formatda qabul qilinayotganini anglatishi mumkin. Bu tendensiya soliq siyosatining markazlashgan usulini, ya'ni muhim imtiyozlarni "tarqoq" shaklda emas, balki bir xil mexanizm asosida yagona kodeksda yoki huukumat darajasida tasdiqlash ehtiyojidan dalolat beradi. Davlat tasarrufidagi mintaqaviy yoki sohaviy qarorlar esa kamroq ulush bilan faoliyat ko'rsatishi mumkin.

3-jadvalda aks etganidek, imtiyozlar ko'pincha Prezident Qarori yoki Farmoni, shuningdek, Vazirlar Mahkamasi qarorlari kabi turli normativ-hujjatlar bilan qisqa muddat ichida tasdiqlanadi. Bu amaliyot moliya yili mobaynida budjet daromadlarini kutilmagan ravishda kamaytirib yuborishi va shunga mos ravishda xarajat rejasi qayta ko'rib chiqilishini taqozo qilishi mumkin.

Shu o'rinda taklifimiz, moliya yili mobaynida budjet tizimi daromadlarini kamaytiruvchi yangi soliq va bojxona imtiyozlarini berish yoki soliqsiz tushumlardan ajratmalarni qisqartirish jarayoni uzoq muddatli rejaga asoslanib, ehtiyojga qarab yoki qonun chiqaruvchi organ ma'qullovi bilan amalga oshirilsin. Chunki jadvaldan ko'rinib turganidek, ba'zan muhim imkoniyatlar ayni paytda ikkinchi darajali sohalar uchun ajratilib, katta miqdorda imtiyoz taqdim etilishi sabab kam xarajatlanadigan eng zarur sohalar e'tibordan chetda qolishi yoki budjetdan qoplanmagan farq yuzaga kelishi mumkin.

Shu yo'l bilan, bir tomondan, davlat budjeti barqarorligi ta'minlanadi, rejalashtirilmagan qarz yoki xarajatlar kamayadi, budjet siyosatining jiddiy burilib ketishi oldi olinadi. Ikkinchi tomondan esa, imtiyoz olishi mumkin bo'lgan tarmoqlar oldindan aniq ko'rsatiladi.

Rejadan tashqari imtiyozlar berishda qat'iy talablar joriy etilishi natijasida biznes ham oldindan qaysi sharoitda, qancha vaqt uchun qanday yengillik borligi haqida aniq tasavvurga ega bo'ladi.

4-jadval

2021-2023-yillar davomida soliq turlari kesimida foydalanilgan soliq imtiyozlarining hududlar kesimida tahlili⁹,
mlrd.so‘mda

Hudud nomi	Soliq imtiyozlari foydalanilgan									
	2021		2022		2023		Farqi 2021-2023		Farqi 2022-2023	
	holatlar soni	summasi	holatlar soni	summasi	holatlar soni	summasi	holatlar soni	summasi	holatlar soni	summasi
Jami	58 282	43 479,2	130 654	72 963,7	142 159	69 777,9	83 877	26 298,7	11 505	-3 185,8
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	3 872	330,5	7 383	548,8	17 834	569,4	13 962	238,9	10 451	20,6
Andijon viloyati	4 356	380,1	7 660	1 689,3	8 261	881,3	3 905	501,2	601	-808,0
Buxoro viloyati	4 897	727,4	9 519	1 162,6	8 805	961,2	3 908	233,7	-714	-201,5
Jizzax viloyati	1 954	170,7	5 147	634,9	5 337	396,9	3 383	226,3	190	-238,0
Qashqadaryo viloyati	4 339	906,1	10 804	898,4	11 027	657,7	6 688	-248,5	223	-240,8
Navoiy viloyati	2 780	192,8	5 579	527,1	5 283	447,3	2 503	254,5	-296	-79,8
Namangan viloyati	3 319	488,9	7 304	1 440,7	7 488	922,8	4 169	433,9	184	-517,9
Samarqand viloyati	3 605	745,8	9 755	1 956,8	10 048	1 245,1	6 443	499,3	293	-711,7
Surxondaryo viloyati	2 728	555,3	6 434	717,3	8 395	543,6	5 667	-11,7	1 961	-173,7
Sirdaryo viloyati	1 396	195,4	3 769	655,7	4 264	377,6	2 868	182,1	495	-278,2
Toshkent viloyati	3 418	610,7	11 605	2 901,0	10 395	1 648,3	6 977	1 037,5	-1 210	-1 252,8
Farg‘ona viloyati	4 801	598,4	10 499	1 978,9	10 737	1 425,0	5 936	826,6	238	-553,9
Xorazm viloyati	3 956	448,2	9 220	879,0	8 481	677,7	4 525	229,6	-739	-201,3
Toshkent shahri	8 622	3 319,5	25 272	10 624,2	24 284	7 548,7	15 662	4 229,2	-988	-3 075,5
Yirik to‘lovchilar soliq	4 239	33 809,3	704	46 348,7	1 520	51 475,2	-2 719	17 665,9	816	5 126,5

⁹ O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

Shu bois, har qanday yangi imtiyozni kiritishdan oldin moliya yili doirasida uning budjetga ta'siri, amal qilish muddati hamda eng muhimi, natijadorligi aniq baholanishi kerak. Shu tariqa biz imtiyozlar orqali iqtisodiy faollikka erishar ekanmiz, bir vaqtning o'zida davlat xarajatlarini ham uzluksiz ta'minlash imkoniga ega bo'lamiz.

Soliq imtiyozlari mamlakat hududlarida bir xil darajada qo'llaniladi, deb bo'lmaydi. Chunki har bir viloyatda iqtisodiy imkoniyatlar, tarmoqlar ixtisoslashuvi, yirik korxonalar mavjudligi, shuningdek, mahalliy darajadagi tashabbuslar turlicha bo'ladi. 4-jadvalda 2021–2023-yillar davomida soliq turlari kesimida foydalanilgan imtiyozlar hududlar bo'yicha taqsimoti (holatlar soni va jami summasi) ko'rsatiladi. Jami ko'rsatkichlar 2021-yilda 58 282 ta holatda 43 479,2 mlrd.so'm imtiyoz berilgan bo'lsa, 2022-yilda 130 654 ta holat (72 963,7 mlrd.so'm), 2023-yilda esa 142 159 ta holat (69 777,9 mlrd.so'm) qayd etilgan. Demak, 2021–2023-yillar mobaynida holatlar soni 83 877 taga ko'paygan, imtiyozlar summasi esa 26 298,7 mlrd.so'mga oshgan. Lekin 2022–2023-yil oralig'ida imtiyozlar summasi -3 185,8 mlrd.so'mga kamaygani ko'zga tashlanadi. Bu umumiy soliq imtiyozlari summasining biroz pasayishi, biroq holatlar soni yanada oshganidan dalolat beradi (avvalgi jadvallar bilan uyg'un).

Shunday qilib, 2021–2023-yillar tahlili shuni ko'rsatadiki, mamlakatdagi iqtisodiy siyosatda soliq imtiyozlarini hududlar kesimida taqsimlash teng emas, lekin har bir hududda tikuv-to'qimachilik, oziq-ovqat sanoati, qurulish, agrar tarmoq yoki turizm kabi ustuvor sohalar bo'yicha belgilab qo'yilgan imtiyozlar orqali iqtisodiy faollik jabhasi kengayib borayotganini ko'rish mumkin.

Iqtisodiyotda turli sohalar bo'yicha soliq imtiyozlaridan foydalanish dinamikasi imtiyozlar siyosatining qay yo'nalishlarga ko'proq e'tibor qaratganini, shuningdek, qay tarmoqlarda eng ko'p talab yoki rag'bat mavjudligini ko'rsatadi.

5-jadvalda 2021–2023-yillar mobaynida sohalar kesimida imtiyozlardan foydalanilgan holatlar soni va ular summasi (mlrd.so'mda) aks etgan. Shuningdek, 2021–2023 va 2022–2023-yillar oralig'idagi farqlar ham keltirib o'tilgan. 2021-yilda 57 976 ta holatda 43 479,2 mlrd.so'm imtiyoz ajratilgan bo'lsa, 2022-yilda 130 690 ta (72 963,7 mlrd.so'm), 2023 yilda 141 831 ta (69 777,9 mlrd.so'm). Shu tarzda, 2021–2023 yillar davomida holatlar soni 83 855 ta, imtiyozlar summasi 26 298,7 mlrd.so'mga ko'paygan; biroq 2022–2023-yillar oralig'ida -3 185,8 mlrd.so'm pasaygan.

E'tibor beradigan bo'lsak, deyarli barcha sohalarda 2021–2023-yillar oralig'ida holatlar soni oshgan. Biroq 2022–2023-yilda eng ko'p tarmoqlarda imtiyoz summasi pasayishi kuzatilgan. Bu masalada e'tiborli jihat 2022-yilda amalga oshgan bir martalik loyihalar ko'p bo'lgani, 2023-yilda esa ular qisqargan. Shu bilan birga, ishlab chiqarish, ulgurji va chakana savdo, logistika (tashish va saqlash) kabi sohalarda 2023-yilda katta o'sish kuzatilgan. Qishloq xo'jaligi (dehqonchilik va chorvachilik) ancha qiziq holat 2022-yilda 27 trln.so'mlik imtiyoz bilan ajralib turgan. 2023-yilda esa bu ko'rsatkich 2,16 trln.so'mga tushgan. Pasayish - 25 trln.so'm bardavom katta farqni bildiradi.

5-jadval

2021-2023-yil davomida imtiyozdan foydalangan tashkilotlar bo'yicha sohalar kesimida tahlili, ¹⁰mlrd.so'nda

Soha nomi	Soliq imtiyozlari foydalanilgan									
	2021		2022		2023		Farqi 2021-2023		Farqi 2022-2023	
	holatlar soni	summasi	holatlar soni	summasi	holatlar soni	summasi	holatlar soni	summasi	holatlar soni	summasi
Jami	57 976	43 479,2	130 690	72 963,7	141 831	69 777,9	83 855	26 298,7	11 141	-3 185,8
Dehqonchilik, chorvachilik va bu sohalarda xizmat ko'rsatish	20 055	1 019,9	10 176	27 368,3	40 258	2 161,5	20 203	1 141,5	30 082	-25 206,8
Tog'-kon sanoati	222	11 285,6	649	15 163,6	347	1 074,6	125	-10211,0	-302	-14 089,0
Ishlab chiqarish faoliyati	5 234	4 515,6	44 020	10 430,0	10 269	24 433,9	5 035	19 918,3	-33 751	14 003,9
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	102	1 621,6	4 206	5 356,2	112	539,5	10	-1 082,1	-4 094	-4 816,7
Suvni yig'ish, qayta ishlash, kanalizatsiya tizimi	138	503,9	29 296	3 306,7	246	366,1	108	-137,8	-29 050	-2 940,6
Qurilish sohasidagi faoliyat	2 613	1 853,3	3 158	1 878,1	3 774	2 061,8	1 161	208,5	616	183,7
Ulgurji va chakana savdo	8 277	4 527,9	1 932	1 679,9	35 685	9 417,9	27 408	4 890,0	33 753	7 738,0
Tashish va saqlash faoliyati	1 697	3 462,0	279	1 598,0	5 190	5 219,6	3 493	1 757,7	4 911	3 621,7
Oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha xizmatlar	1 791	129,0	3 666	1 489,9	8 846	437,2	7 055	308,2	5 180	-1 052,7
Axborot xizmati ko'rsatish sohasi va aloqa faoliyati	1 103	837,7	3 658	988,5	2 863	4 051,0	1 760	3 213,2	-795	3 062,5
Moliyaviy va sug'urta xizmatlari	502	10 297,6	5 815	920,8	683	14 953,4	181	4 655,8	-5 132	14 032,6
Ko'chmas mulk bilan bog'liq faoliyat	1 014	48,2	106	611,8	1 618	288,4	604	240,2	1 512	-323,4
Boshqa professional, ilmiy va texnika faoliyati	2 590	843,9	2 177	571,7	3 969	608,1	1 379	-235,8	1 792	36,5
Ma'muriy boshqaruv, xizmat ko'rsatish sohasidagi faoliyat	1 253	241,5	2 053	380,6	2 792	490,9	1 539	249,4	739	110,3
Davlat boshqaruvi va mudofaa; Majburiy ijtimoiy ta'minot	1 776	236,3	172	339,5	1 931	672,4	155	436,1	1 759	332,9
Ta'lim	3 932	450,6	7 299	316,2	5 559	1 517,9	1 627	1 067,3	-1 740	1 201,7
Sog'liqni saqlash sohasi va ijtimoiy xizmatlardagi faoliyat	3 507	1 253,6	1 615	225,9	3 824	1 124,7	317	-128,9	2 209	898,9
Ijod, san'at, sport va ko'ngil ochish sohasidagi faoliyat	709	308,4	1 082	204,4	1 174	202,2	465	-106,3	92	-2,3
Boshqa xizmatlar ko'rsatish	1 461	42,5	9 331	133,7	12 691	156,7	11 230	114,2	3 360	23,0

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

Ehtimol, agrotarmoqda mavsumiy yoki investitsiya loyihasi yoki soliq sababli olingan imtiyozlar chekingan. Imtiyozlarning sohalar bo'yicha dinamikasi shuni ko'rsatadiki, 2022-yilda ko'p sohalarda juda katta imtiyozlar berilgan; 2023-yilda esa ayrim yo'nalishlarda (qishloq xo'jaligi, tog'-kon sanoati, energetika) keskin pasayish kuzatilgan. Shu bilan birga, ishlab chiqarish, savdo, logistika, IT, bank-moliya sohalarida 2023-yilda imtiyozlar ancha oshib ketgan. Bu ilmiy tahlilda soliq imtiyozlari ma'lum bir «strategik siyosat» asosida qayta taqsimlanadigan yoki maqsadli tarmoqlarga yo'naltiriladigan vosita ekanini ko'rsatadi. Ishlab chiqarish (24,43 trln.so'm), moliya-sug'urta (14,95 trln.so'm), ulgurji-chakana savdo (9,41 trln.so'm) tarmoqlari 2023-yilda eng ko'p imtiyoz ajratilgan tarmoqlar sifatida e'tirof etilishi mumkin. Boshqa tarmoqlarda: tog'-kon, dehqonchilik, energetika kabi 2022-yilda uchragan juda katta imtiyoz raqamlari 2023-yilda ancha kamaygan. Bu shuni ko'rsatadiki, ayrim yo'nalishlar davlat tomonidan yoki belgilangan muddatga (2022-yil oxirigacha) rag'batlantirilgan bo'lib, 2023-yildan boshqa sohalarga urg'u ko'proq ajratilgan.

